



UO'K: 811.512

**CLASSIFICATION OF DICTIONARIES - ONE OF THE MAIN SUBJECTS
OF LEXICOLOGY**

Abduxakim Abdulaxatovich Aripov

Andijon davlat chet tillar instituti erkin tadqiqotchisi

PhD taqrizi bilan

Y.Shukurov

Abstract: *The field of Lexicography was being developed and various types of dictionaries have appeared. In order to make it easier for users, to determine the stages of development of the field, to show its innovations and peculiarities, the practice of classifying dictionaries has come to the field. As the types of dictionaries increased, new classifications appeared. In this article, the experiences of lexicographers, the advantages and disadvantages of various classifications, and modern approaches are analyzed in the classification of dictionaries.*

Key words: *Lexicography, dictionary, classification, historical, vocabulary unit, diachronic, synchronic.*

**КЛАССИФИКАЦИЯ СЛОВАРЕЙ - ОДНА ИЗ ОСНОВНЫХ ТЕМ
ЛЕКСИКОЛОГИИ**

Аннотация: *Развивалась область лексикографии, создавались словари различных типов. В целях создания удобства для пользователей, определения этапов развития области науки, выявления ее новшеств и особенностей была введена практика классификации словарей. По мере увеличения типов словарей появлялись новые классификации. В данной статье анализируются опыт лексикологов в этой области, преимущества и недостатки различных классификаций, современные подходы в классификации словарей.*

Ключевые слова: *Лексикография, словарь, классификация, исторический, словарная единица, диахронический, синхронический.*

**LUG'ATLAR TASNIFI - LUG'ATShUNOSLIKNING BOSH
MAVZULARIDAN BIRI**

Annotasiya: *Lug'atnavislik sohasi rivojlanib, lug'atlarning har xil turlari vujudga keldi. Foydalanuvchilarga qulaylik bo'lishi, fan sohasining taraqqiyot bosqichlarini aniqlash, undagi yangilik va o'ziga xosliklarni ko'rsatib berish maqsadida lug'atlarni tasniflash*



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

amaliyoti joriy bo'ldi. Lug'atlar turlari ko'paygani sayin yangi-yangi tasniflar vujudga keldi. Ushbu maqolada lug'atlarni tasniflash borasida lug'atshunos olimlar tajribalari, turli tasniflarning yutuq-kamchiliklari, zamonaviy yondashuvlar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: *Lug'atnavislik, lug'at, tasnif, tarixiy, lug'at birligi, diaxronik, sinxronik.*

Lug'at tilshunoslikka oid kitoblarning eng old qatorida turuvchi, tarixan eng qadimgi davrda vujudga kelgan muhim manbadir. Lug'atlar maqsadi, vazifasi, tuzilishi, tarkibi kabi ko'plab jihatlariga qarab turlarga bo'linadi, tasniflanadi. E.V.Kuznesovaga ko'ra, "Har qanday lug'atning turi ikki xil omil: aks ettirilayotgan leksik material va amaliy ahamiyatga ko'ra aniqlanadi" .

Leksikografiya fanida lug'atning turli tasniflari mavjud . Bunday tasniflar davr o'tishi bilan o'zgarib, takomillashib borgan.

Aliy al-Qosimiy mavjud tasniflarning o'zini ham tasniflab, quyidagilarga ajratadi:

1. Shcherba tasnifi.
2. Sebeok tasnifi.
3. Malkel tasnifi.
4. Alan Ray tasnifi.
5. Boshqa tasniflar .

L.V.Shcherba lug'atlarni quyidagicha tartibda olti zidlama doirasida turlarga ajratib tasniflaydi:

1. Akademik turdagi lug'atlar (me'yoriy vazifani bajaruvchi) - ma'lumotnoma lug'at (nutq namunalarini qaydlovchi);
2. Qomusiy (ensiklopedik) lug'at (voqelik haqida ma'lumot beruvchi) - umumiy lug'at (muayyan tilning oddiy so'z boyligini qamrovchi);
3. Tezaurus (maxsus so'z boyligini beruvchi) - oddiy (oddiy yoki izohli) lug'at;
4. Oddiy (izohli yoki tarjima) lug'at - g'oyaviy lug'at;
5. Izohli lug'at - tarjima lug'ati;
6. Notarixiy lug'at - tarixiy lug'at .

Shcherbaning ushbu tasnifi anchagina shartli bo'lib, bir turli lug'at qaysidir xususiyatiga ko'ra boshqa turga ham mansub bo'lishi mumkin. Buni muallifning o'zi ham e'tirof etadi.

Ali al-Qosimiy Shcherba tasnifi borasida shunday deydi: "Shcherbaning mazkur tasnifi lug'atning cheklangan turlarini o'z ichiga olgan tarkibiy xususiyatga ega balandparvoz va nomukammal tasnifdir. Bu esa har xil turlar o'rtasida bir muncha chalkashlikka sabab bo'ladi. Agar Shcherbaning tarixiy lug'at haqidagi



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

mulohazalarini, uning qanday bo'lishi kerakligi haqidagi so'zlarini bir chetga surib qo'ysak, uning tasnifi hech qanday yangi fikr bermaydi. Chunki uning bu tasnifi fe'lan mavjud lug'atlarga tayanadi. Chunki Shcherbadan ilgarigi kutubxona fehrislari ham lug'atlarni bir tilli, ikki tilli lug'atlar, alifbo tartibli fehrislar, ma'noga ko'ra tartiblangan lug'atlar va ensiklopediyalarga taqsimlagan".

Shcherbaning yuqoridagi tasnifi, rossiyalik lug'atshunos Tyutyunnokovga ko'ra, leksikografiya sohasida birinchi lug'at tasnidir. Ushbu ta'rifning zamonaviy lug'atshunoslik sohasidagi tarixiy tadrijiylik jihatidan eng dastlabkilardan biri ekanini e'tiborga oladigan bo'lsak, har qanday fanda bo'lgani kabi eng sodda va boshlang'ich qarashlar, ilk xulosalarni o'zida aks ettiradi. Zotan yigirmanchi asrning yetmishinchi yillarida ifodalangan ushbu tasnif bugungi kunga kelib paydo bo'lgan o'nlab zamonaviy lug'at turlarini qamrab ololmasligi tabiiy. Ko'pchilik lug'atshunos-tilshunoslar fikricha, Shcherbaning lug'at turlari tasnifi bu boradagi ilk tasnif sifatida baholangan.

Amerikalik lug'atshunos, tilshunos Tomas Sebeok lug'atlarni 3 katta toifaga bo'lib, 17 xil belgiga ko'ra tasniflagan. 1-toifa: manba-tilni saralash uslubi, manba-tilning o'zining tavsifi; 2-toifa: shakl va ma'no o'rtasidagi ikkitomonlama qarama-qarshilik negizidagi sintagmatik ifoda hamda paradigmatic aloqa tuzilishi; 3-toifa: lug'atni tur sifatida ta'riflash. Mana shu uch xususiyatga ko'ra, Sebeok lug'atlarning 17 xil belgisini sanab o'tadi. Biroq bu belgilarning aksariyati lug'at komponentlari o'rtasidagi ichki leksikografik munosabatlar bilan bog'liq, ya'ni ular lug'at yozuvlari orasidagi munosabatlarni tavsiflaydi.

Ali al-Qosimiyga ko'ra, Sebeokning mazkur tadqiqoti faqatgina bir tilga oid sanoqli (o'n ikkita) lug'atga tayangani uchun bir qator cheklovlar doirasida qolgan. Zero Sebeok tadqiqoti lug'atchilik faoliyatining ozgina shakllari (3 toifa belgi) haqida bahs yuritgani uchun o'z qobig'i doirasida cheklanib qolgan.

Ali Qosimiyning fikriga ko'ra, ko'plab lug'at tasniflari orasida o'zining kengqamrovliligi hamda ta'sir doirasining kengligi bilan ajralib turuvchi yana bir tasnif Yakov Malkilga oiddir. Malkil lug'atlarni dastlab uch asosiy xususiyatga ko'ra tasniflagan bo'lsa, keyinchalik, aniqrog'i 1976 yili bu xususiyatlarni 8 taga yetkazib, tasnifini takomillashtirishga erishgan.

Malkil o'zining tasnifida foydaliligini fonemalarni tasniflashda isbotlagan uslublarni tatbiq qilishga harakat qilgan. Uning ilk tasnifidagi 3 yirik taqsimot quyidagilardan iborat: 1. Qamrovga ko'ra tasniflash. Bunda eniga qamrov -lug'atga qancha so'z boyligi jalb etilgani hamda chuqurligiga ko'ra qamrov - bir so'zning qancha ma'nosi qamrab olinganiga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, qo'shimcha ma'nolar hamda istilohiy ifodalar qayd etilgan-etilmagani ham ahamiyatli. 2. Lug'at




"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

o'z ichiga olgan tillar qamroviga ko'ra tasniflash. Bunga ko'ra, lug'atlar bir tilli, ikki tilli, uch tilli, to'rt tilli va ko'p tilli kabi turlarga ajratiladi. 3. Lug'at birliklari jihatidan tasniflash. Bunda Malkil ensiklopedik birliklarga e'tibor qaratadi. Lug'atning atoqli otlarni qamrashi, ularga qisqacha izohdan ko'ra kengroq sharhlar berilganligi kabi alohida jihatlarni sanab o'tadi .

Malkil tasnifi shunisi bilan ahamiyatliki, unda nafaqat nazariy ma'lumotlarga tayaniladi, balki yuzlab ishlarni sinchiklab tahlil qilingan va shu tariqa nazariya amaliyot bilan mustahkamlagan .

G'arb lug'atshunoslaridan biri L.Zgusta lug'atlarni quyidagi belgi va xususiyatlarga ko'ra tasniflagan: 1. Vaqtga ko'ra: lug'at til ma'lumotlarini yig'ish va tilni tasvirlash nuqtai nazaridan diaxronik (tarixiy yoki dinamik) yoki sinxron (statik) bo'lishi mumkin ; 2) Lug'atga kiritilgan til birliklarining tabiatiga ko'ra: lug'at faqat leksik yoki to'liq ensiklopedik ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin. 3) Lug'at birliklarining zichligi: Bunda kiritish uchun ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan so'zlar ro'yxati nazarda tutiladi. Ro'yxat umumiy, cheklangan va ixtisoslashgan sohalardagi so'zlarni o'z ichiga olishi mumkin. Agar kerak bo'lsa, mintaqaviy va ijtimoiy shevalardagi so'zlarni, jargon, lahja va arxaizmlarni ham qamrab oladi. 4) Tillar soniga ko'ra: lug'at foydalanuvchilarga qarab, bir tilli yoki ikki tilli yoki ko'p tilli bo'lishi mumkin. 5) Yozuvlarning joylashishi: Odatda, leksik qismlar oddiy alifbo tartibida joylashtiriladi, ammo so'zlar ham ularning semantik yoki ma'no munosabatlariga ko'ra tartibga solinishi mumkin. 6) Lug'atning maqsadi: Bu lug'atning asosiy vazifasi bilan bog'liq. Lug'at tuzilish maqsadiga ko'ra umumiy, me'yoriy, pedagogik, ma'lumotli yoki tavsiflovchi bo'lishi mumkin. 7) Bo'lajak foydalanuvchilar: lug'at leksik birliklarning umumiy lingvistik ma'lumotlarini bilmoqchi bo'lgan umumiy o'quvchilar yoki leksik birliklarning alohida jihatlari bilan qiziqqan maxsus foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan bo'ladi . Zgustaning ushbu tasnifini quyidagi chizma bilan ifodalash mumkin:





"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Zgusta tasnifining o'zidan oldingi boshqa tasniflardan farqli jihati shundaki, unda birinchi bor lug'atning maqsadi tasniflash belgisi sifatida talqin etilgan.

Lug'atlarning turlari ko'paygani sayin lug'at tasniflari ham takomillashib, yangi-yangi turlar bilan boyib bordi. Bu esa lug'atlarning lug'atshunoslar tasnifiga ko'ra turlar bilan boyiganini emas, aksincha, lug'atshunoslar tasniflari tuzilayotgan turfa xil lug'atlar belgilariga qarab takomillashib borganini ko'rsatadi.

Zgusta tasnifidan keyin leksikologiyada ko'pgina o'zgarishlar yuz berdiki, ular o'z navbatida sohaning sezilarli rivojlanishiga sabab bo'ldi. Xususan, axborot texnologiyalari va ilmiy bilimlarning rivojlanishi lug'atlar xilma-xilligini ancha oshirdi. Bu o'sish o'zi bilan yangi tasniflarni olib keldi. Ulardan biri Atkins va Rundell tomonidan tuzilgan tasnifdir. Bu tasnif quyidagicha:

Lug'at tiliga ko'ra:

- a) bir tilli lug'at;
- b) ikki tilli lug'at: bir tomonlama va ikki tomonlama shakllariga bo'linadi;
- c) ko'p tilli lug'at.

Lug'at doirasiga ko'ra:

- a) umumiy tilli umumiy lug'at;
- b) ensiklopedik va madaniy birliklarni o'z ichiga olgan ensiklopedik lug'at;
- c) terminologiya yoki sublingvistika (masalan, huquq, sport, sog'liqni saqlash atamalarini)ni qamragan atamaviy lug'at
- d) tilning ma'lum bir sohasi tilini o'z ichiga olgan lug'at (qo'shma so'zlar, turg'un iboralar yoki qo'shma fe'llar lug'ati)

Lug'at hajmiga ko'ra:

- a) standart (yoki universitet) lug'ati;
- b) qo'l lug'ati;
- c) cho'ntak lug'ati.

Lug'at vositasiga ko'ra:

- a) bosma lug'at;
- b) elektron lug'at (DVD yoki ko'chma);
- c) web-ga asoslangan lug'at.

Lug'atning tashkiliy shakliga ko'ra:

- a) so'zdan ma'noga qarab tartiblangan (bu tur eng keng tarqalgan);
- b) so'zdan ma'noga – ma'nodan so'zga qarab tartiblangan lug'at (bunda so'z semantik jihatdan bog'liq boshqa so'zga olib boradi).

Foydalanuvchilarning tillariga ko'ra:

- a) bir tilda gaplashuvchi foydalanuvchilar guruhiga mo'ljallangan lug'at;



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

b) ikkita maxsus guruhni tashkil etuvchi ma'ruzachilar uchun tayyorlangan lug'at;

v) lug'at tilini o'rganayotgan barcha dunyo o'quvchilari uchun tayyorlangan lug'at

Foydalanuvchilarning mahoratiga ko'ra:

a) tilshunoslar va boshqa til mutaxassislariga mo'ljallangan lug'at;

b) savodli katta yoshlilar uchun lug'at;

v) maktab o'quvchilari uchun tayyorlangan lug'at;

d) yosh bolalar uchun lug'at;

ye) til o'rganuvchilar uchun lug'at.

Lug'atning ishlatilish maqsadiga ko'ra:

a) dekodlash (o'qish) maqsadlarida foydalaniladigan lug'at turi (Dekodlash so'zning ma'nosini tushunish yoki xorijiy matnni ona tiliga tarjima qilish deb izohlanishi mumkin.)

b) kodlash uchun ishlatiladigan lug'at turi (kodlashni so'zdan to'g'ri foydalanish, o'z tilidagi matnni chet tiliga tarjima qilish yoki til o'rgatish deb izohlash mumkin) .

Lug'atshunoslardan yana biri V.Morkovkin lug'atlarni quyidagicha tasniflaydi: "Filologik lug'atlar quyidagi uch asosga ko'ra turlarga ajratiladi: "nima-asos, qanday-asos, kim uchun -asos".

Leksik lug'atlar: orfografik, orfoepik, izohli, tarjima, tilshunoslik-mamlakatshunoslik, so'zlar o'zgarishiga oid, so'zlarning negiz tuzilishiga oid: so'zning sinonimik qiymatiga ko'ra, so'zning antonimik qiymatiga ko'ra va b.;

Birikuvchanlik lug'atlari, otlar va fe'llar boshqaruvi, so'z birikmalariga oid lug'atlar;

Frazeologik lug'atlar: kuchli va / yoki kuchsiz frazeologizmlar, maqol va matallar, hikmatlar, turg'un qiyoslar, siyqa iboralar va nutq shakllari;

Leksik tizimning oddiy birliklari ob'ekt bo'lib xizmat qiladigan lug'atlar (sinonimlar, omonimlar, so'z yasovchi uyachalar lug'ati, barcha turdagi ideografik lug'atlar, ajnabiy so'zlar lug'atlari, ko'chirma so'zlar va neologizmlar lug'ati);

Til-markazli va antropo-markazli lug'atlar;

Bir sohali va ko'psohali lug'atlar;

Ma'lumotni topish uslubiga ko'ra – tushuntiruvchi va namoyish etuvchi;

Reseptiv (qabul qiluvchi, nafaol), samarali (faol) va qabul qiluvchi-samarali turdagi;

Diaxronik va sinxronik lug'atlar;



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Tilga oid materialning joylashuviga ko'ra: rasman tartiblangan (alifbo bo'yicha: to'g'ri va aksincha) va tarkibiga ko'ra tartiblangan (ideografik, uyachali);

Mavjudlik yo'siniga ko'ra – mustaqil va o'quv jarayonida qo'llanuvchi lug'atlar;

Mustaqil, boshqasiga bog'liq bo'lmagan;

Kitob shaklidagi va kompyuterdagi lug'atlar .

Mazkur tasnifda klassik tasavvurdagi lug'at turlari sanalgan filologik, leksik kabi katta turkumlardan tashqari yana bir qator maxsus lug'at turlari ham tilga olinadi. Masalan, qabul qiluvchi (nofaol) hamda samarali (faol) lug'at turlari, diaxronik va sinxronik, ma'lumotni topish uslubiga ko'ra: tushuntiruvchi va namoyish qiluvchi kabi turlar tasnif muallifining o'ziga xos qarashini aks ettiradi. Biroq, mazkur tasnifni sinchiklab ko'zdan kechiradigan bo'lsak, unda bir muncha zo'rakilik va takroriylikni kuzatish mumkin. Zero, leksik lug'at turi so'zlarning negiz tuzilishiga oid: so'zning sinonimik qiymatiga ko'ra, so'zning antonimik qiymatiga ko'ra va b. belgilariga ko'ra xususiyatlansa, xuddi shu belgilarni leksik tizimning oddiy birliklari ob'ekt bo'lib xizmat qiladigan lug'atlar (sinonimlar, omonimlar va b.)ga xos turida ham ko'rish mumkin. Mohiyatan mazkur ikki tur bir-biriga juda yaqin va hatto bir-birini takrorlaydi.

Lug'atlarning o'tmishdan hozirgi davrgacha tuzilgan va fanga ma'lum turlari haqida ko'plab tadqiqotlarda yetarlicha ma'lumot berilgan. Masalan, hind olimi Niladri Sekhar Dash lug'atlarni tasniflarkan, ularni jami 11 katta guruhga ajratadi. Jumladan, umumiy (general) lug'at, me'yoriy (normative) lug'at, referensial yoki deskriptiv (Referential or Descriptive), tarixiy (Historical), etimologik (Etymological), mushtarak so'zlar lug'ati, ensiklopedik lug'at, o'quv lug'ati, bir tilli lug'at, maxsus lug'at, elektron lug'at kabi turlarni sanab o'tadi . Ushbu lug'at turlarining har biri o'z o'rnida bir necha tarmoq turlarni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi ko'plab tasniflarda lug'atlarning dastlab ikki katta turga: ensiklopedik va tilshunoslik lug'atlariga bo'linganiga guvoh bo'lamiz. Zamondosh lug'atshunoslardan Bunday qarashni birinchilardan bo'lib Shcherba ilgari surgan. U o'zining lug'atlar tasnifiga bag'ishlangan 6 zidlamasida "Qomusiy (ensiklopedik) lug'at (voqelik haqida ma'lumot beruvchi) – umumiy lug'at (muayyan tilning oddiy so'z boyligini qamrovchi)" ikki qarama-qarshi turga ishora qiladi. Shu tariqa avvalo, ensiklopediyaning ham lug'at sirasiga kirishini ifodalaydi, ikkinchidan, ensiklopediya va tilshunoslik lug'atini bir-biridan ayiradi. Shcherba tasavvurida ensiklopedik lug'at asosan atoqli otlar tavsifiga bag'ishlansa, tilshunoslik lug'atlari turdosh otlar tavsifiga qaratiladi .

O'z navbatida Zgusta ham lug'atlarni ensiklopedik va tilshunoslik lug'atlariga ajratadi. Unga ko'ra, ensiklopedik lug'atlar tilshunoslik lug'atlaridan farq qiladi.



“INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024”

Zero tilshunoslik lug'atlari asosan tilga, ya'ni tilning leksik birliklariga va ularning lingvistik xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Buning aksi o'laroq, ensiklopedik lug'atlar (ularning ko'pchiligi oddiy qilib ensiklopedialar deb ataladi) asosan leksik birliklar (so'zlar)ning denotativ jihati (ma'nosi)ga ko'proq ahamiyat qaratadi: ular nolingvistik, jismoniy yoki nojismoniy olam haqida ma'lumot beradi va ular faqat bu nolingvistik dunyo bo'laklari haqida gapirilganda, nazarda tutiladigan so'zlar tartibida joylashgan bo'ladi. Ushbu “so'zlarga ko'ra” joylashuv jihatidan ensiklopedialar bir tilli lug'atlarga o'xshaydi. Boshqa ta'bir bilan aytganda, ensiklopediya lug'atning yaqin qarindoshidir. Balki bu til haqidagi emas, narsalar, odamlar, joylar va g'oyalar haqidagi, voqelik olami haqidagi kitobdir. Lug'at bilan ensiklopediya o'rtasidagi tafovut masofasini aniqlash doim ham oson emas. Zero, har ko'pincha birida ikkinchisining belgilari mavjud bo'ladi. Ammo ularda sarlavhalar ro'yxati bir xil bo'lmaydi – ensiklopediyada lug'at bilan o'xshashlik topilmaydi, ular mushtarak sarlavhalar uchun bir xil ma'lumot bermaydi.

Tilshunoslik lug'ati bilan ensiklopediya o'rtasidagi farqni yanada teranroq tushuntirishga harakat qilgan Dubichinskiy quyidagi belgilarga e'tibor beradi: “Tilshunoslik lug'atida ba'zan grafik namunalar yoki ishora qiluvchi rasmlar ishlatiladi. Eniklopediyalarda esa mutlaqo o'zgacha turdagi namunalar keng ko'lamda namoyish etiladi – bular diagrammalar, sxemalar, xaritalar, fotosuratlar va boshqalardir. Biroq “Ensiklopediya lug'at emas va uning leksikografiyaga hech qanday aloqasi yo'q” degan keskin fikrga borishning zarurati yo'q. Uni lug'at hisoblash uchun yagona sabab, unda tavsiflanayotgan voqeliklarning alifbo tartibida joylashganidir”.

Keyingi davr lug'atshunoslari lug'atning ushbu ikki katta turi o'rtasidagi farqning yanada nozikroq qirralarini aniqlashga harakat qildilar. Xususan, L.I.Raxmanova ensiklopedik lug'atda “narsa-buyum” haqida ma'lumot berilsa, tilshunoslik lug'ati o'sha buyumni ifodalovchi “so'z”ni tavsiflaydi. Xuddi shunday qarashni B.Kemada ham olg'a suradi va “so'z – buyum” belgisiga ko'ra tasniflaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, lug'at eng qadimiy va eng muhim tilshunoslik manbasi bo'lish bilan birga, inson hayoti davomida rivojlanib boruvchi, tobora yangi qirralar va xususiyatlar bilan boyib boruvchi adabiyotdir. Shu bois hozirga qadar berilgan tasniflarning qaysidir biri har qancha mukammal yoki nisbatan mukammalroq bo'lmasin, vaqt o'tishi bilan yangi tasniflarga ehtiyoj tug'iladi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кузнецова, 1988, Дубичинский В.В. Теоретическая и практическая лексикография. Вена Харьков, 1998.
2. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. Ленинград, 1974. 265-304-бб.
3. Atkins ВТ. and Rundel M. The Oxford Guide to Practical Lexicography. Oxford, 2008.
4. Тютюнников Н.Н. Одноаспектная и многоаспектная классификация словарей // Историческая лексикология и лексикография. Санкт-Петербург, 2008.
5. Zgusta L. Manual of lexicography. Czechoslovak Academy of Sciences, 1971. p. 198